



Antitsipatsiya va forsait tushunchalarining ijtimoiy-pedagogik, psixologik mohiyati

Sadriddinova Feruza Meliyevna –

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

E-mail: feruzasadridinova0102@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-8678-4533>

Annotatsiya. Mazkur maqolada antitsipatsiya va forsait tushunchalarining ijtimoiy-pedagogik hamda psixologik mohiyati ilmiy-nazariy nuqtai nazardan kompleks tahlil qilingan. Antitsipatsiyaning shaxsning kelajakdagi voqea va jarayonlarni oldindan anglash, ehtimoliy vaziyatlarni prognoz qilish hamda ularga mos ravishda faoliyatni rejalashtirishdagi psixologik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, forsait yondashuvining ta'lim tizimi va jamiyat taraqqiyotini strategik rejalashtirish, istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini belgilash hamda innovatsion qarorlar qabul qilishdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada ushbu tushunchalarning o'zaro bog'liqligi, ularning ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarining prognostik tafakkuri, strategik fikrlashi, kasbiy kompetentligi va moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari antitsipatsiya va forsait yondashuvlarini pedagogik faoliyatga integratsiya qilish ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek, zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim omillaridan biri ekanligini asoslaydi. Mazkur maqola oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, magistrantlar hamda pedagogika va psixologiya sohasida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun foydali ilmiy-uslubiy manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: antitsipatsiya, forsait, ijtimoiy-pedagogik prognostika, psixologik oldinlatib aks ettirish, kelajakni loyihalash, prediktiv kognitsiya, kognitiv model.

Социально-педагогическая и психологическая сущность понятий предвидения и прогнозирования

Аннотация. В данной статье с научно-теоретических позиций проведён комплексный анализ социально-педагогической и психологической сущности понятий антиципации и форсайта. Раскрыты психологические механизмы антиципации как способности личности к предварительному осмыслению будущих событий и процессов, прогнозированию возможных ситуаций и планированию собственной деятельности в соответствии с ожидаемыми изменениями. Кроме того, освещено значение форсайт-подхода в стратегическом планировании развития системы образования и общества, определении перспективных направлений развития, а также принятии инновационных управленческих решений. В статье проанализирована взаимосвязь данных понятий, их роль в развитии

прогностического мышления, стратегического мышления, профессиональной компетентности и адаптивных навыков будущих специалистов в образовательном процессе. Результаты исследования подтверждают, что интеграция антиципации и форсайт-подхода в педагогическую деятельность является одним из важных факторов повышения качества и эффективности образования, а также подготовки конкурентоспособных специалистов, соответствующих требованиям современного общества. Представленная статья является полезным научно-методическим источником для профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений, докторантов, магистрантов и исследователей, осуществляющих научную деятельность в области педагогики и психологии.

Ключевые слова: антиципация, форсайт, социально-педагогическая прогностика, психологическое опережающее отражение, проектирование будущего, предиктивная когниция, когнитивная модель.

Social, pedagogical and psychological essence of the concepts of foresight and forecasting

Annotation. This article presents a comprehensive scientific and theoretical analysis of the socio-pedagogical and psychological essence of the concepts of anticipation and foresight. It examines the psychological mechanisms of anticipation as an individual's ability to foresee future events and processes, predict possible situations, and plan activities in accordance with anticipated changes. Furthermore, the study highlights the significance of the foresight approach in the strategic planning of educational systems and social development, identifying promising directions for future development, and supporting innovative decision-making processes. The article also analyzes the interrelationship between anticipation and foresight, emphasizing their role in developing prospective specialists' predictive thinking, strategic thinking, professional competence, and adaptive skills within the educational process. The findings demonstrate that integrating anticipation and foresight approaches into pedagogical practice is an important factor in improving the quality and effectiveness of education, as well as preparing competitive professionals capable of meeting the demands of contemporary society. This study serves as a valuable scientific and methodological resource for university faculty members, doctoral researchers, master's students, and scholars conducting research in the fields of pedagogy and psychology.

Keywords: anticipation, foresight, socio-pedagogical prognostics, psychological anticipatory reflection, future design, predictive cognition, cognitive model.

KIRISH

Insoniyat sivilizatsiyasining hozirgi rivojlanish bosqichi axborot oqimlarining jadallashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning noaniqligi hamda texnologik va dinamik o'zgarishlarning yuqori sur'atlari bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda ta'lim, tarbiya va shaxs rivojlanishi masalalariga an'anaviy, ya'ni o'tmish tajribasiga va joriy holatga vaqtinchalik moslashishga asoslangan yondashuvlar o'z samaradorligini yo'qotmoqda. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari oldida turgan eng muhim uslubiy vazifalardan biri - shaxs hamda ijtimoiy tizimlarning kelajak hodisalarni oldindan ko'ra bilish, ehtimoliy ssenariylarni modellashirish va istiqbolni belgilash imkoniyatlarini chuqur tadqiq etishdir.

Aynan shu kontekstda antitsipatsiya (lotincha *anticipatio* - oldindan sezish, oldindan egallash) va foresayt (inglizcha *foresight* - uzoqni ko'ra bilish, istiqbolni bashorat qilish) tushunchalari ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, psixologiya va pedagogikaning markaziy kategoriyalaridan biriga aylanib bormoqda. Foresayt tushunchasi dastlab iqtisodiy va

texnologik prognostika, strategik menejment hamda davlat siyosatini rejalashtirish vositasi sifatida paydo bo'ldi. Biroq so'nggi yillarda ushbu tushuncha ijtimoiy-pedagogik makonga shiddat bilan kirib keldi. Forsayt shunchaki kelajakni passiv ravishda bashorat qilish (forecasting) emas, balki kutilayotgan va istalgan kelajakni faol ravishda loyihalash, uning muqobil ssenariylarini yaratish va ushbu kelajakni amalga oshirish uchun ijtimoiy subyektlarning (o'quvchilar, pedagoglar, ta'lim muassasalari, jamiyat) jamoaviy sa'y-harakatlarini safarbar etish metodologiyasidir. Tarixan antitsipatsiya tushunchasi psixofiziologiya va umumiy psixologiya doirasida inson organizmining va asab tizimining kelajakdagi harakatlarga tayyorgarligi, subyektning kutilayotgan voqealarni kognitiv aks ettirish qobiliyati sifatida o'rganilgan. Akademik P.K.Anoxinning "faoliyatning qabul qiluvchi-akseptori" nazariyasi va N.A.Bernshteynning "kelajakning zaruriy modelini shakllantirish" to'g'risidagi konseptual qarashlari antitsipatsiyaning biologik va psixofiziologik ildizlarini ochib berdi. Biroq zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, antitsipatsiya faqatgina oddiy sensomotor yoki fiziologik reaksiya bo'lib qolmay, u shaxsning oliy psixik funksiyalari, shaxsiy qadriyatlari, maqsad qo'yish hamda qaror qabul qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab kognitiv va shaxsiyat tizimidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Antitsipatsiya fenomenining neyropsixologik va kognitiv asoslari Y.Bar hamda K.Friston tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ushbu mualliflar miyani "bashorat qiluvchi mashina" (predictive brain) sifatida talqin etib, kognitiv jarayonlar kelajakni doimiy modellashtirishga yo'naltirilganini isbotlaydi.

Psixologik prognostikada E.N.Surkov va B.F.Lomov ishlarida antitsipatsiyaning darajali iyerarxiyasi hamda harakatlarni boshqarishdagi yetakchi o'rni ochib berilgan. Zamonaviy ta'lim psixologiyasida esa A.V.Brushlinskiy va E.A.Sergienkolarning izlanishlari antitsipatsion qobiliyatlarning shaxs intellektual va emotsional rivojlanishiga ta'sirini tahlil qiladi. Forsayt konseptining ijtimoiy-pedagogik genezisi R.Slaughter va B.Martin tadqiqotlariga borib taqaladi. Ular forsaytni shunchaki texnologik bashorat emas, balki ijtimoiy tizimlar va ta'lim institutlarining kelajakni konstruksiyalash vositasi deb baholaydi. YUNESKO va IHTR (OECD) doirasidagi xalqaro hisobotlarda (Futures of Education, 2021) forsayt ta'lim siyosatining o'zgaras strategik komponenti sifatida e'tirof etilgan. Rossiyalik pedagog-prognostiklar B.S.Gershunskiy va I.V.Bestujev-Lada ishlarida ta'limiy prognostika va ijtimoiy kelajakni modellashtirishning metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Ijtimoiy-pedagogik yo'nalishda forsayt-sessiyalarning ta'lim oluvchilar fuqarolik va kasbiy pozitsiyasiga ta'siri A.A.Popov va M.S.Yakushinalar tomonidan o'rganilgan.

So'nggi yillarda o'zbekistonlik olimlardan Sh.S.Shodmonova, N.A.Muslimov va M.X.Muxamedovlar ta'lim strategiyalari va pedagogik prognostika masalalariga e'bor qaratishgan. Biroq mahalliy ilmiy makonda antitsipatsiyaning psixologik va forsaytning ijtimoiy-pedagogik sinergiyasini integratsiyalashgan holda tadqiq etish hali yetarlicha amalga oshirilmagan. Ko'pchilik manbalarda antitsipatsiya individual-psixologik, forsayt esa makro-ijtimoiy hodisa sifatida alohida o'rganiladi. Pedagogik amaliyot uchun esa ushbu ikki tushunchaning o'zaro chorrahasida shaxsning "prediktiv kompetensiyasi"ni shakllantirish mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy manbalarni umumlashtirish shaxsiy antitsipatsiya va jamoaviy forsayt modellarini yagona ta'limiy makonga tatbiq etish zaruratini asoslaydi. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar bazasi mazkur tadqiqotda ilgari surilgan ijtimoiy-pedagogik hamda psixologik modelni yaratish uchun yetarli nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Psixologiya fanida antitsipatsiya hodisasi inson psixikasining fundamental xususiyati bo'lgan "prediktiv kognitsiya" (predictive cognition) bilan doimiy ravishda bog'lanadi. Inson miyasi va psixikasi faqatgina tashqi muhitdan kelayotgan reaktiv signallarga javob qaytaruvchi passive tizim emas, balki kelajakdagi hodisalarni va ularning oqibatlarini doimiy ravishda modellashtirib boruvchi faol "preattaktiv" va "prediktiv" vositadir.

Antitsipatsiyaning psixologik tuzilmasini tahlil qilishda uning ko'p darajali iyerarxiyasini ajratib ko'rsatish lozim:

1. Sensomotor antitsipatsiya: Insonning jismoniy harakatlari, makon va vaqtdagi mo'ljall olishi, xatti-harakatlarning vaqtinchalik parametrolari va trayektoriyalarini milisekundlar darajasida oldindan hisoblab chiqish imkoniyatini beradi.

2. Pertseptiv-kognitiv antitsipatsiya: Idrok etilayotgan obyektlarning kelgusi holatlarini visual, eshitish va boshqa his-tuyg'ular darajasida tiklash va bashorat qilish jarayoni. Masalan, pedagogik muloqotda suhbatdoshning emotsional reaksiyasini uning yuz ifodasi va jestlaridan oldindan sezish.

3. Shaxsiyat va qadriyat darajasidagi antitsipatsiya: Bu daraja shaxsning hayotiy strategiyalari, qadriyatlar tizimi, ma'naviy-axloqiy tanlovlari va uzoq muddatli maqsadlari bilan xarakterlanadi. Bu yerda antitsipatsiya shaxsning o'z o'tmishi, buguni va kelajagini yagona hayotiy konsepsiyaga birlashtirish funksiyasini bajaradi.

Psixologik nuqtai nazardan antitsipatsiya samaradorligi kognitiv sxemalar va ichki modellarning mukammalligiga bog'liq. Subyektda kelajak haqidagi kognitiv xarita qanchalik boy va moslashuvchan bo'lsa, u kutilmagan vaziyatlarda shunchalik tez va to'g'ri qarorlar qabul qila oladi. Antitsipatsiya qobiliyati yuqori bo'lgan shaxslar emotsional barqarorlik, stresga chidamlilik hamda refleksivlik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Aksincha, antitsipatsiya mexanizmlarining rivojlanmaganligi yoki ulardagi disfunktsiya shaxsda xavotirlanish, doimiy noaniqlik hissi, qaror qabul qilishdan qochish va ijtimoiy desadaptatsiyaga olib keladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Forsaytning ijtimoiy-pedagogik konsepsiyasi va uning antitsipatsiyadan farqli xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz. Ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan, forsayt pedagogik tizimlar va jamiyatning kelajakka yo'naltirilgan rivojlanishini ta'minlovchi zamonaviy strategik vosita hisoblanadi. Forsayt va antitsipatsiya o'rtasidagi bog'liqlik va tafovutlarni aniq chegaralab olish ilmiy metodologiya uchun nihoyatda muhimdir.

Mezon	Antitsipatsiya	Forsayt
Subyektivlik	Asosan individual-psixologik xarakterga ega (shaxs psixikasi)	Jamoaviy, institutsional va ijtimoiy xarakterga ega
Faoliyat yo'nalishi	Ehtimoliy kelajakni kognitiv va psixofiziologik aks ettirish	Istalgan kelajakni faol loyihalash va uni shakllantirish
Metodologik bazasi	Psixologik diagnostika, refleksion tahlil, kognitiv modellashtirish	Delphi-so'rovlar, ssenariylar tahlili, SWOT, Trendmapping
Vaqt gorizonti	Qisqa, o'rta va uzoq muddatli individual istiqbol	Uzoq muddatli ijtimoiy-tizimli strategik istiqbol (10-30 yil)

Forsaytning ijtimoiy-pedagogik mohiyati shundaki, u ta'lim oluvchilar va pedagoglarda passiv kuzatuvchi pozitsiyasidan vositachi hamda kelajak arxitektori pozitsiyasiga o'tishni ta'minlaydi. Ijtimoiy-pedagogik forsayt quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

Muqobil kelajaklar tamoyili: Kelajak bir qiymatli belgilab qo'yilmagan, balki u bugungi kunda qabul qilinadigan qarorlar va harakatlarga bog'liq holda ko'p ssenariyidir.

Kelajakni konstruksiyalash (loyihalash) tamoyili: Kelajak faqat tahlil qilinmaydi, balki subyektlarning kelishuvi va hamkorligi asosida faol yaratiladi.

Jamoaviy mas'uliyat va konsensus tamoyili: Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining kelajak tasviri borasidagi kelishuvi va unga erishishdagi birgalikdagi mas'uliyati.

Ushbu ijtimoiy-pedagogik va psixologik poydevor ta'lim jarayonida shaxsning ichki potentsialini ro'yobga chiqarish, uning ijtimoiy va kasbiy mobilligini oshirish uchun nazariy bazani yaratadi.

Antitsipatsiya va forsayt tushunchalarini alohida-alohida o'rganish nazariy pedagogika va psixologiya uchun yetarli emas. Zamonaviy fanning asosiy vazifasi - ushbu ikki fenomenni yagona prognostik tizimga birlashtirish va uning psixologik-pedagogik mexanizmlarini ochib berishdan iborat. Individual va jamoaviy darajalarning o'zaro ta'siri natijasida "Prognostik sinergiya" effekti yuzaga keladi.

Shaxsning ichki antitsipatsion salohiyati va jamiyatning forsayt texnologiyalari birlashganda, ta'lim oluvchining kognitiv xaritasida sifat jihatidan yangi bosqich - shaxsiy strategik loyihalash paydo bo'ladi.

Psixologik nuqtai nazardan ushbu sinergiya uchta asosiy fazani o'z ichiga oladi:

1. Pre-orientatsiya fazasi (Ichki antitsipatsiya): Shaxs o'zining intellektual resurslari, tajribasi hamda qadriyatlaridan kelib chiqqan holda kelajak haqida dastlabki psixologik tasavvur va umidlarni shakllantiradi. Bu bosqichda asosan intuitiv va refleksiv antitsipatsiya yetakchi o'rin tutadi.

2. Kollaborativ modellashirish fazasi (Forsayt-mashg'ulotlar): Shaxs individual tasavvurlarni jamoaviy muhokama va tahlil maydoniga olib chiqadi. Bu yerda forsayt metodlari (Ssenariylar tahlili, Sotsiometrik xaritalash va b.) yordamida obyektiv trendlar, xavf-xatarlar hamda imkoniyatlar atroflicha tahlil qilinadi.

3. Konstruktiv-amaliy faza: Jamoaviy forsayt natijasida olingan muqobil kelajak xaritalari qayta ishlanib, shaxsning individual rivojlanish trayektoriyasiga hamda ta'lim muassasasining strategik rejasiga aylantiriladi. Ushbu jarayon shaxsda "Eksistensial barqarorlik"ni shakllantiradi. Ya'ni, noaniqlik va inqirozlar sharoitida individual antitsipatsiya ichki ruhiy muvozanatni saqlashga xizmat qilsa, forsayt bilimlari tashqi muhitda moslashuvchan, ammo maqsadli harakat qilish imkoniyatini yaratadi.

An'anaviy pedagogik tizimlarda ta'lim mazmuni asosan pastga yo'naltirilgan "tayyor bilimlarni retranslyatsiya qilish"ga asoslangan edi. Zamonaviy pedagogikada esa e'tibor "Kelajakka yo'naltirilgan ta'lim" metodologiyasiga qaratilmoqda. Ushbu metodologiya o'zini antitsipatsion ko'nikmalarni charxlovchi hamda forsayt texnologiyalariga asoslangan interaktiv ta'lim usullari tashkil etadi. Zamonaviy amaliyotda samarali qo'llanilayotgan asosiy ijtimoiy-pedagogik va psixologik texnologiyalar: Delphi va Mini-Delphi metodlari (Pedagogik modifikatsiya): O'quvchi va talabalarda muayyan muammo bo'yicha ekspertlik fikrini shakllantirish, muqobil variantlarni baholash va jamoaviy konsensusga erishish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu metod o'quvchilarda individual antitsipatsiyani obyektiv faktlar bilan boyitishga yordam beradi.

Trendmapping (Trendlar xaritasini tuzish): Ijtimoiy, texnologik va madaniy jarayonlardagi o'zgarishlarni kuzatish va ularning kelajakdagi oqibatlarini modellashirish. O'quvchilar nafaqat bugungi holatni, balki "kuchsiz signallar" (weak signals) deb ataluvchi ilk o'zgarish belgilari orqali ertangi kun tendensiyalarini aniqlashni o'rganadilar. Backcasting (Orqaga qaytish orqali loyihalash): Bu metod orqali o'quvchilar vaqtning an'anaviy yo'nalishini o'zgartiradilar: ular birinchi navbatda kelajakdagi ideal holatni (masalan, 2040-yildagi o'z kasbiy muvaffaqiyati yoki ta'lim tizimi) aniq tasvirlab oladilar, so'ngra u yerdan bugungi kunga qarab qaysi bosqichlarni bosib o'tish zarurligini ketma-ketlikda loyihalashtiradilar. Kognitiv imitatsion o'yinlar va ssenariy treninglari: Talabalarga real inqirozli yoki noaniq vaziyatlar (ekologik, iqtisodiy, pedagogik kolliziyalar) beriladi. Ular tezkor qaror qabul qilish va doimiy o'zgarib turadigan sharoitda antitsipatsion xatti-harakat qilish bo'yicha amaliy ko'nikma hosil qiladilar.

Ushbu interaktiv metodlar ta'lim oluvchilarda "Kognitiv moslashuvchanlik" va "Prediktiv intellekt"ni shakllantirib, ularni kelajakning noaniqliklaridan qo'rqmaslikka, aksincha, u bilan samarali muloqot qilishga o'rgatadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kelajakni bashorat qilish va modellashirish faqatgina intellektual yoki kognitiv jarayon emas. Bunda emotsional-irodaviy va motivatsion sohaning o'rni beqiyosdir.

1. Chidamlilik va neyrotizm profilaktikasi: Kelajakni oldindan ko'ra bilish va uning salbiy ssenariylariga ruhiy va amaliy tayyor turish shaxsda xavotirlik darajasini keskin kamaytiradi. Antitsipatsion mexanizmlari kuchli bo'lgan o'quvchilar kutilmagan qiyinchiliklarga duch kelganda sarosimaga tushmaydilar, balki ularni oldindan taxmin qilingan ehtimoliy variantlardan biri sifatida qabul qiladilar.

2. Shaxsiy mas'uliyat: Forsayt mashg'ulotlari va antitsipatsion amaliyotlar shaxsda "Ichki lokus control" ni rivojlantiradi. O'quvchi o'z kelajagi va muvaffaqiyati tasodiflarga yoki tashqi omillarga emas, balki o'zining bugun qilayotgan tanlovlari va harakatlariga bog'liq ekanligini anglab yetadi.

3. Istiqbolli refleksiya: An'anaviy refleksiya o'tmishdagi tajriba va xatolarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lsa, istiqbolli refleksiya hali sodir bo'lmagan, lekin sodir bo'lishi mumkin bo'lgan harakatlar va ularning oqibatlarini ruhiy jihatdan "yashab o'tish" imkonini beradi. Bu esa ma'naviy va axloqiy adashishlarning oldini oluvchi kuchli psixologik to'siq hisoblanadi. Shunday qilib, ijtimoiy-pedagogik va psixologik amaliyotda antitsipatsiya va forsayt shaxsning har taraflama va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi fundamental poydevor vazifasini o'taydi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot uslubiy hamda amaliy nuqtai nazardan antitsipatsiya va forsayt tushunchalarining ijtimoiy-pedagogik hamda psixologik mohiyatini har taraflama yoritib berdi. Bajarilgan ilmiy tahlil va nazariy umumlashtirishlar quyidagi fundamental xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Antitsipatsiya inson psixikasining obyektiv borliqni, kelgusi harakatlar va voqealarni oldinlatib aks ettirishga qaratilgan fundamental kognitiv-psixofiziologik mexanizmi bo'lsa, forsayt - ijtimoiy va institutsional darajada kelajakning muqobil ssenariylarini jamoaviy loyihalash hamda shakllantirish metodologiyasidir. Bu ikki fenomen bir-birini inkor etmaydi, aksincha, shaxsiy va ijtimoiy prognostika darajalarida bir-birini to'ldiradi.

2. Antitsipatsiya va forsayt imkoniyatlarining rivojlanishi shaxsda nafaqat intellektual va prediktiv ko'nikmalarni charxlaydi, balki uning emotsional-irodaviy sohasida frustratsiyaga chidamlilik, stressga bardoshlilik hamda ichki lokus kontrolni (mas'uliyatni o'z ustiga olishni) ta'minlaydi. Noaniqlik va shiddatli o'zgarishlar sharoitida kelajakni modellashtira olish shaxsiy xavotirlikni kamaytirishning eng samarali psixologik omilidir.

3. Zamonaviy ta'lim tizimi passiv bilim berish va o'tmish tajribasiga retranslyatsiya qilish konsepsiyasidan kelajakni faol konstruksiyalash hamda shakllantirishga asoslangan "Futures-Oriented Education" (Kelajakka yo'naltirilgan ta'lim) modeliga o'tishi shart. Bunda antitsipatsion va forsayt texnologiyalari ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlariga integratsiya qilinishi zarur.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, ta'lim tizimini takomillashtirish hamda shaxsning prognostik salohiyatini oshirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Pedagog va amaliyotchi psixologlarni tayyorlash hamda qayta tayyorlash kurslarida forsayt-sessiyalarini o'tkazish, pedagogik trendlarni bashorat qilish hamda o'quvchilarning antitsipatsion qobiliyatlarini tashxis qilish va rivojlantirish bo'yicha maxsus treninglarni yo'lga qo'yish.

2. O'quvchilar va talabalarda "kognitiv moslashuvchanlik", "istiqbolli refleksiya" hamda stressga chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish simulyatsiyalari hamda kognitiv-imitatsion o'yinlarni muntazam tashkil etish.

3. Yirik ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ta'lim, tarbiya va mehnat bozori ehtiyojlarini uzoq muddatli rejalashtiruvchi, yoshlarning individual kasbiy

trayektoriyasini modellashtiruvchi “Pedagogik prognostika va foresayt laboratoriyalari”ni bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Anoxin P. K. Ocherki po fiziologii funktsionalnix sistem. - M.: Meditsina, 1975. - 447 s.
2. Бернштейн Н. А. Очерки по физиологии движений и физиологии активности. - М.: Медитсина, 1966. - 349 с.
3. Ломов Б. Ф., Сурков Э. Н. Антитсипатсия в структуре деятельности. - М.: Наука, 1980. - 279 с.
4. Bell W. Foundations of Futures Studies: Human Behavior, New Technology, and the Future. - Transaction Publishers, 2003. - Vol. 1. - 380 p.
5. Slaughter R. A. The Knowledge Base of Futures Studies. - Foresight International, 2005. - 250 p.
6. Reger G. Technology Foresight in Companies: From Theory to Practice. // International Journal of Technology Management.- 2001. - Vol. 21, No. 5/6. - P. 548-568.
7. Bruton G. D., Ahlstrom D., Li H. L. Institutional Theory and Entrepreneurship: Where Are We Now and Where Do We Need to Move in the Future? // Entrepreneurship Theory and Practice. - 2010. - Vol. 34, No. 3. - P. 421-440.